

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZILAR MAHKAMASINING
QARORI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lism sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, pedagogik ta'lism sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lism sifatini oshirish, sohaga ilg'or ta'lism texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lism sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son qaroriga muvofiq Andijon davlat universitetining (keyingi o'rnlarda — Universitet) pedagogika ta'lism sohasi bakalavriat ta'lism yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari negizida Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Institutning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

hududda pedagogika soha va tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalari, shuningdek, zamonaviy texnika hamda texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda pedagogika sohasi bo'yicha tarbiya va o'qitish usullari, ta'lism jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash;

Institutning mintaqa va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish maqsadida xorijiy fuqarolar uchun ta'lism olish imkoniyatini kengaytirish va ilg'or xalqaro tajribani tatbiq etish;

o'quv va ilmiy laboratoriya xonalarini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlash hamda o'quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

ta'lism va ilmiy izlanishlar jarayoniga malakali mutaxassislarni keng jalb etish maqsadida respublika va xorijiy yetakchi oliy ta'lism muassasalari hamda ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

xorijiy yetakchi va nufuzli oliy ta'lism muassasalarining ilg'or tajribasini tatbiq etish asosida malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish, o'quv va ilmiy-uslubiy ta'minotni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish;

ta'lism jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lism texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash;

pedagogika ta'lism sohasini rivojlantirishning ilmiy-metodik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish va iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish;

respublika va xorijiy oliy ta'lism hamda ilmiy muassasalariga istiqbolli yosh bitiruvchilarni magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali Institutning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirib borish;

xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) va STEAM standartlaridan foydalanish, aniq va tabiiy fanlarni o'qitish va baholashning zamonaviy shakllari, metodlari va texnologiyalarini joriy etish hamda ushbu bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagoglarini tayyorlash.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Institut O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Institutda o'quv jarayoni 2021/2022 o'quv yilidan boshlanadi;

2021/2022 o'quv yilidan boshlab Universitetda pedagogika ta'limga sohasining bakalavriat ta'limga yo'naliishlari va ularning negizidagi tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul to'xtatiladi hamda ushbu bakalavriat ta'limga yo'naliishi va uning negizidagi tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar o'qishni bitirgunlariga qadar Universitetda ta'limga jarayonini davom ettiradilar;

Institutga talabalarni bakalavriat ta'limga yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul qilish soni har yili belgilangan tartibda tasdiqlanadigan respublika oliy ta'limga muassasalariga o'qishga qabul qilish parametrlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi;

o'quv dasturlari o'zaro yaqin bo'lgan bakalavriat ta'limga yo'naliishlarini birlashtirgan holda bitiruvchilarga ikkita kvalifikatsiya berish tizimi yo'lga qo'yiladi;

Institut Universitetning o'quv va ilmiy laboratoriyalardan, sport inshootlaridan hamda axborot-resurs markazidan rejalashtirilgan dars jarayonlariga ta'sir etmagan holda tekin foydalanadi;

Institutga kafedra mudiri va professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish Universitet kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4. Andijon viloyati, Andijon shahri, Do'stlik ko'chasi, 4-uy hamda Andijon shahri, Cho'lpionshoh ko'chasi, 38-uy manzillaridagi Universitetning bino va inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda Institutga operativ boshqaruvi huquqi asosida bepul berilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi Universitet bilan birgalikda 2021-yil 1-iyunga qadar:

a) Institut:

tuzilmasi oliy ta'limga muassasalarini uchun belgilangan normativlarga muvofiq tasdiqlanishini;

ustavi belgilangan tartibda tasdiqlanishi va uning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini;

axborot-resurs markazini qo'shimcha o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlasin;

b) Institutni tanlov asosida amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislardan iborat yuqori malakali professor-o'qituvchilar bilan to'ldirish choralarini ko'rsin.

6. Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti, talabalarning to'lov-kontrakt asosida ta'limga olishidan, shartnomalar asosida xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, xalqaro moliya va xorijiy tashkilotlarning grantlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalarini, shuningdek qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilansin.

7. Belgilab qo'yilsinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirish 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida, 2022-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti parametrlarida nazarda tutiladi.

Zarur hollarda, Universitet kengashining qaroriga asosan Universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan Institut moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va Institutning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan Universitet moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga ruxsat berilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

umumiy o'rta ta'limga muassasalarida Institut talabalari amaliyotini samarali tashkil etish uchun tegishli sharoitlar yaratilishini ta'minlasin;

o'quvchilarni pedagog kasbiga yo'naltirish maqsadida Andijon viloyatidagi yetakchi umumiy o'rta ta'limga muassasalarining 10 tasida 3-4-sinf o'quvchilari uchun "O'qish va matematik savodxonlik bo'yicha sinflar", 8-9-sinf o'quvchilari uchun "Matematik va tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha sinflar", 10-11-sinf o'quvchilari uchun "Pedagogik sinflar"ni tashkil etsin va Institut taklifi asosida dars jarayoniga ta'sir etmagan holda o'quv jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

9. Universitet:

salohiyatli kadrlarni jalb etgan holda ta'limga ilmiy faoliyatni sifatli tashkil etish;

ta'limga tarbiya, ilmiy va uslubiy jarayonlarni samarali boshqarish;

ta'lism jarayoniga zamонавиъ pedagogik texnologiyalarni joriy etish; darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy material va axborot resurslari bilan ta'minlash; professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va iqtidorli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish; ilmiy-tadqiqot ishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish va ilmiy maktablarni rivojlantirish yo'nalishlarida Institutga ko'mak berib borsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi bilan birgalikda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan Institutning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash loyihalari O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2024-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlasin.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-avgustga qadar Institutni onlayn ma'ruza hamda masofaviy ta'lism texnologiyalarini joriy etish uchun telekommunikatsiya jihozlari va infratuzilma bilan ta'minlash, shuningdek, yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i hamda "Elektron ta'lism" milliy tarmog'iga belgilangan tartibda ulash choralarini ko'rsin.

12. Institutga 2 ta, shu jumladan, 1 ta yengil va 1 ta navbatchi avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinosbasari B.A. Musayev, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lism vaziri A.X. Toshkulov hamda Andijon viloyati hokimi Sh.K. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 6-aprel,
187-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/187/0290-son)